



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

## MUSIQA SAN'ATI VA INSON QALBINING UYG'UNLIGI

**Mamajonov Ulug'bek Maxammattolibovich**

*Andijon davlat pedagogika insituti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqola musiqa san'atining inson hayotidagi o'rnini, uning ruhiy va ma'naviy rivojlanishdagi ahamiyatini yoritadi. Matnda musiqa inson qalbiga ta'siri, hissiyotlarni uyg'otishi, estetik didni shakllantirishi va axloqiy tarbiyadagi roli batafsil tushuntiriladi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Ashot Ivanovich Petrosyans kabi buyuk shaxslarning musiqiy faoliyati orqali musiqa san'atining inson hayotiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi misollar bilan ko'rsatiladi. Maqola yosh avlodni musiqa orqali tarbiyalash, ularning ma'naviy va estetik kamolotini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.*

### **Kalit so'zlar:**

*madaniyat, musiqa san'ati, inson ruhiyati, hissiyotlar, estetik tarbiya, ma'naviy rivojlanish, milliy musiqiy meros.*

### **Аннотация.**

*В данной статье освещается место музыки в жизни человека, её важность в духовно-нравственном развитии. В тексте подробно объясняется влияние музыки на душу человека, пробуждение эмоций, формирование эстетического вкуса и её роль в нравственном воспитании. Также на примерах показано положительное влияние музыки на жизнь человека через музыкальную деятельность таких великих деятелей, как Алишер Навои и Ашот Иванович Петросян. В статье подчеркивается важность воспитания молодого поколения посредством музыки, обеспечения его духовной и эстетической зрелости.*

### **Ключевые слова:**

*культура, музыка, человеческая психика, эмоции, эстетическое воспитание, духовное развитие, национальное музыкальное наследие.*

### **Abstract.**

*This article highlights the place of music in human life, its importance in spiritual and moral development. The text explains in detail the impact of music on the human soul, the awakening of emotions, the formation of aesthetic taste, and its role in moral education. It also shows with examples how music has a positive impact on human life through the musical activities of such great figures as Alisher Navoi and Ashot Ivanovich Petrosyans. The article emphasizes the importance of educating the younger generation through music, ensuring their spiritual and aesthetic maturity.*

### **Keywords:**

*culture, music, human psyche, emotions, aesthetic education, spiritual development, national musical heritage.*

Musiqa insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng ta'sirchan san'at turlaridan biri hisoblanadi. U inson qalbi va ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, kishining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Musiqa insonni beixtiyor o'ziga ergashtirib, uni fikrlar va hissiyotlar olamiga olib kiradi. Kuy va qo'shiqlar inson qalbida turli tuyg'ularni uyg'otadi, uni o'ylashga, his qilishga va hayot mazmunini chuqurroq anglashga undaydi.

Musiqaning shifobaxsh xususiyatlari insonni nafaqat tushkun holatdan chiqaradi, balki jismoniy og'riqlardan xalos etadi. O'zini-o'zi davolash har qanday dori-darmonlardan muhimroq, va har birimiz mushkul holatlarda aynan unga umid qilamiz. Inson hayoti ikki qismga bo'linadi: atrofdagi hayot va inson qalbidagi o'ziga hos olami. Har birimiz o'ylaymiz, tasavvur qilamiz va orzu qilamiz, va insoniyat bilan parallel ravishda rivojlanadigan musiqa bizning fikrlarimizni yaxlitlaydi. Xalqimizning bebaho boyligi musiqa merosimiz o'zining boy tarixiga ega bo'lib davr o'tgani sari uni o'rganishga extiyoj tobora ortib bormoqda. Bizga

ma'lumki milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda musiqiy merosimizni o'rganish milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash va rivojlantirishning o'rni katta.

Mamlakatimiz ya'ni Yangi O'zbekistonda musiqa san'ati va madaniyatini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Musiqa madaniyatining turli yo'nalishlari bo'yicha yosh iste'dodlarni izlab topish, ularning ijodiy faoliyatini yuksaltirish yuzasidan g'amxo'rlik qilish muhim ahamiyatga molik vazifalardan biriga aylandi. "...Xalqimizning ma'naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir" [1]. Zero, o'tmishdagi musiqiy ijrochilik an'alarini tiklash, zamonaviy sharoitlarda saqlab qolish, o'zbek milliy musiqiy asarlari va sozlarini xorijiy mamlakatlarda namoyish etish, musiqa ta'limida yangi an'analarni tarkib toptirish, xalq ma'naviy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish, jamiyat hayotida musiqa madaniyatining tutgan o'rnini tahlil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda, kunlik ijtimoiy xayotimizda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Bu borada asrlar osha xalqdan-xalqqa ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan xalq ma'naviyati xazinasining bebaho boyligi bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi bo'lmish xalq qo'shiqlari yoshlar tarbiyasida ulkan ahamiyat kasb etadi. Jumladan xalq donishmandligining go'zal ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari yoshlar ma'naviy kamolotning shakllantirishining vositasi sifatida oila, bolalar bog'chalari maktablarda maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarda atroflicha o'rganishligi muhimdir. Hozirgi kunda o'zbek milliy musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarida "xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, maqom san'atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarni chuqur o'rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish" kabi vazifalar belgilangan. Shuning uchun ham musiqa insonga hamisha hamroh uning tuyg'ulariga ruhiyatiga qanotdir. Xalqimizning milliy musiqa san'ati nihoyatda qadimiydir. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlarini, badiiy madaniyati istiqlol va mustaqillik uchun kurash hamda orzu umidlari aks etadi.

Odam bolasining dunyoqarashi, saviyasi va ruhiyati qay darajada rivojlangan bo'lsa, u musiqani ham shunchalik chuqur anglay oladi. Musiqani tinglash, uning mazmunini tushunish va undan estetik zavq olish inson uchun katta baxtdir. Chunki musiqa inson ruhiyatini boyitadi, uni go'zallikka his qilishga o'rgatadi hamda ma'naviy kamolotga yetaklaydi.

Afsuski, ba'zi kishilar musiqa tilini yetarli darajada tushunmaydilar. Shu sababli yosh avlodga musiqiy bilim va tarbiya berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash jarayonida musiqa san'ati alohida o'rin tutadi. Yoshlar musiqiy madaniyatga ega bo'lsa, ularning estetik didi, ma'naviy dunyosi va axloqiy qarashlari ham yuksaladi.

Musiqa san'ati insonni go'zallikka chorlaydi, uning qalbida ezgu tuyg'ularni uyg'otadi. Inson kuy va qo'shiqlarni tinglar ekan, o'zining ichki dunyosiga nazar tashlaydi, o'zidagi

kamchilik va salbiy sifatlarni anglay boshlaydi. Natijada u o'z ustida ishlashga, o'zini tarbiyalashga intiladi. Shu sababli musiqa o'z-o'zini tarbiyalashning kuchli vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Ta'lim jarayonida musiqa darslari o'quvchilarning nafaqat estetik didini, balki ularning ruhiy va aqliy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Musiqa ta'limining mazmunini belgilashda o'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir yosh davrida musiqani qabul qilish va tushunish darajasi turlicha bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy tovushlar, obrazlar va hissiyotlar inson ruhiyatini boyitadi, uning tafakkurini kengaytiradi. Musiqa insonni borliq bilan uyg'unlashtirib, uni go'zallik va haqiqat sari yetaklaydi. U inson tasavvuri va xayolotining cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi hamda hayotni yanada mazmunli, ma'naviy boy va go'zal qiladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqa san'ati va cholg'u asboblari alohida e'tibor qaratgan. Navoiy o'z zamonasining cholg'u sozlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Nay – dard o'tiga yel beradi", "G'ijjak – cho'ziq nolalar chekib, yolvoradi" "Tanbur – maftunkorlik bilan halovat pardasini chok etadi" "Chang – zorlanib bo'g'zini cho'zadi" "Ud – tilining ingrab yolvorishi changnikidan ham ortadi" "Rubob – boshini yerga qo'yib iltimos qiladi" "Qonun – nolasi quloqqa eshitiladi".

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, Navoiy har bir cholg'u asbobini inson ruhiyati bilan bog'laydi. U cholg'ular orqali inson qalbidagi tuyg'ularni ifodalash mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa o'rta asr mutafakkirlariga xos bo'lgan estetik va falsafiy dunyoqarashning yorqin namunasi hisoblanadi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ham san'at va madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni haqida alohida ta'kidlab o'tgan. U san'at va madaniyat inson qalbiga yo'l topadigan qudratli kuch ekanligini, ular orqali jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish mumkinligini qayd etgan.

Musiqa san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan insonlardan biri mashhur dirijyor va olim Ashot Ivanovich Petrosyans hisoblanadi. U orkestr dirijyori, cholg'ushunos olim, tajribali pedagog va iste'dodli tashkilotchi sifatida tanilgan.

A.V. Petrosyansning iste'dodi yoshligidan namoyon bo'lgan. U maktab davridayoq musiqiy to'garaklarda faol qatnashgan va musiqa bilan jiddiy shug'ullana boshlagan. Musiqa texnikumini tamomlagach, armiya safida xizmat qiladi. Xizmatdan qaytgach esa bolalar badiiy tarbiya uyida ish boshlaydi va iste'dodli bolalardan rus xalq cholg'ulari orkestrini tashkil etadi.

Petrosyans o'z faoliyati davomida skripka, do'mra, balalayka va gitara kabi turli cholg'u asboblari chalgan. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari bilan yaqindan hamkorlik qilib, ko'plab havaskor orkestrlarni tashkil etgan. Uning faoliyati natijasida ko'plab iste'dodli musiqachilar yetishib chiqqan.

1936-yilda u Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida dars bera boshlaydi. U pedagog sifatida ko'plab yosh ijrochilarni tarbiyalab, ularning professional musiqachi bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shgan. 1940-yilda esa xalq cholg'ulari orkestri O'zbekiston bo'ylab gastrol safarini uyushtirib, turli shaharlarda konsertlar bergan.

1948-yilda Petrosyans Toshkent konservatoriyasida yangi tashkil etilgan o'zbek xalq cholg'ulari kafedrasining mudiri etib tayinlanadi. Shu davrdan boshlab uning ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyati konservatoriya bilan chambarchas bog'lanadi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga katta hissa qo'shib, ko'plab ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratgan.

Musiqqa shunday san'at turiki, u insonlarning his-tuyg'ularini birlashtiradi, ularni ruhiy jihatdan yaqinlashtiradi. Kompozitor tomonidan yaratilgan musiqqa inson qalbida turli-tuman kechinmalarni uyg'otadi. Musiqqa tarbiyasi esa estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, musiqqa san'ati inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. U inson ruhiyatini boyitadi, ma'naviy dunyosini yuksaltiradi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bois musiqqa san'atini rivojlantirish, yosh avlodga musiqiy ta'lim va tarbiya berish har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

**Xulosa.** Musiqqa san'ati va inson qalbi o'rtasidagi uyg'unlik — bu nafaqat estetik hodisa, balki murakkab psixofiziologik va neyrobiologik jarayonlar bilan asoslangan ilmiy haqiqatdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqqa tinglash jarayonida inson miyasining bir nechta hududlari — xususan, emotsiyalarni boshqaruvchi limbik tizim, xotira bilan bog'liq gipokamp va mukofot mexanizmlariga mas'ul dopamin tizimi faol ishtirok etadi. Bu esa musiqqa insonda chuqur hissiy javoblar uyg'otishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, musiqqa terapiyasi amaliyoti musiqqa vositasida stressni kamaytirish, depressiv holatlarni yengillashtirish, hatto ayrim nevrologik kasalliklarni rehabilitatsiya qilish mumkinligini ko'rsatmoqda. Bu esa musiqqa san'atining inson ruhiyati va sog'lig'iga ta'siri faqat subyektiv emas, balki obyektiv, o'lchab bo'ladigan hodisa ekanini anglatadi.

Bundan tashqari, musiqqa ijtimoiy-kommunikativ vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. U insonlar o'rtasida empatiya, hamdardlik va ijtimoiy bog'liqlikni kuchaytiradi. Kollektiv musiqqa ijrosi yoki birgalikda tinglash jarayonida insonlar o'rtasida psixologik sinxronlashuv yuzaga keladi, bu esa jamiyatdagi ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, musiqqa san'ati va inson qalbi uyg'unligi — bu biologik, psixologik va ijtimoiy omillar kesishgan nuqtada yuzaga keladigan ko'p qatlamli fenomen bo'lib, u insonning ichki dunyosini boyitish, ruhiy muvozanatini saqlash va jamiyat bilan uyg'un yashashida muhim o'rin tutadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 avgustdagi "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3212-sonli qarori (Elektron resurs) // [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Matyoqubov O. "Og'zaki an'anadagi professional musiqqa asoslariga kirish" O'quv qo'llanma 1983 yil
3. Solomonova T.E. "O'zbek musiqasi tarixi" 1981 yil
4. Kavkabi N. "Risoi musiqi", "Risoi dar bayoni Duvozdah maqom" Tavhezot ba qalamiy A.Rajabov -Dushanbe. Irfon 1985 yil
5. Qodirov U.D. "Badiiy ijodiyotda ijtimoiy-psihologik va etnopsihologik muammolar talqini" (A.Qodiriy romanlari asosida ) T.2002 yil

**Эгамназарова З.К.**

*Совершенствование коммуникативной компетенции на занятиях по русскому языку в вузе (в нефилологических направлениях) посредством использования современных сатирических текстов* ..... 74 77

**To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li**

*Talabalar xizmatlarini tashkil etishda registrator ofisining ergonomik boshqaruv modeli* ..... 78 81

**Novshadbekova Dilnura Zafarbekj qizi**

*Tarbiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish orqali talabalarning kreativ va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish* ..... 82 87

**Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna**

*Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini pedagogik improvizatsiya asosida rivojlantirishning determinantlari va strategiyalari* ..... 88 91

**Muqumjonova (Sodiqova) Moxinur Farxodjon qizi**

*Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar* ..... 92 94

**Kodirov Muxammadxusanbek Abdizohid o'g'li**

*Oliy ta'lim muassasalarida basketbol mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish* ..... 95 100

**Shomurotov Asqar Abdullayevich**

*Talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari* ..... 101 105

**Ismonov Xurshidbek Baxtiyorovich, Toshpulatova Maftuna Sherali qizi**

*Geomertik shakllar asosida Natyurmort kompozitsiyasini qurish* ..... 106 109

**IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR**

**Fozilov Botirjon Zakirovich**

*Global ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil va strategik rivojlanish tendensiyalari* ..... 110 116

**Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna**

*O'quv faoliyatida stressni yengishning samarali psixologik texnikalari* ..... 117 122

**Erkinboyeva Zilola Fayzillo qizi**

*Mahmudxo'ja behbudiyning jadidchilik g'oyalari va ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari* ..... 123 125

**Eshonqulova Jumagul Abdumajidovna**

*Ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari* ..... 126 129

**Mamajonov Ulug'bek Maxammattolibovich**

*Musiqqa san'ati va inson qalbining uyg'unligi* ..... 130 133

**Ahmadjonova Shahnozaxon Yارقinovna**

*Talabalar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish* ..... 134 136

**Keldiyeva Shaxnozaxon Shuxratovna**

*Bo'lajak tarixchi talabalarni tayyorlashda reflektiv yondashuv: jadid maktablarining ilmiy-metodik merosidan foydalanish imkoniyatlari* ..... 137 140

